



**RAQAMLI INSON HUQUQLARI KONTEKSTIDA BOLALAR
HUQUQLARINING HIMOYASI: XALQARO VA MILLIY HUQUQIY
YONDASHUVLAR**

Normo‘minov Rustam Xamza o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro

huquq va inson huquqlari yo‘nalishi, magistratura talabasi

Email: rustamnorumminov544@gmail.com

Kalit so‘zlar: Bola huquqlari, onlayn xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmik diskriminatsiya, sun’iy intellekt; raqamli savodxonlik, kiberxavfsizlik, Avstraliya bola huquqlari; Avstraliyaning raqamli xavfsizlik siyosati;

Raqamli texnologiyalar sohasidagi jadal taraqqiyot inson huquqlarining raqamli platformalarda yangi shakllarda namoyon bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu jarayon ayniqsa bolalar huquqlarini himoya qilishda murakkab va har tomonlama (yoki uyg‘un) yondashuvlarni talab qiladi. An’anaviy yuridik tamoyillar, xususan, bola shaxsining daxlsizligi, axborot erkinligi, ta’lim olish huquqi va xavfsizlik kafolatlari raqamli muhitda yangi xavf-xatarlar, cheklovlar va tahdidlarga duch kelmoqda. Bola yoshidagi foydalanuvchilarning internet, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalardagi faol ishtiroki ularning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, onlayn xavfsizlikni ta’minlash, raqamli savodxonlik va psixologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli kuzatuv tizimlari, shaxsiy ma’lumotlarning noqonuniy yig‘ilishi, yoshga mos bo‘lmagan kontentga erkin kirish, sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmik tizimlar orqali maqsadli reklama va manipulyatsiyalar kabi omillar bolalar huquqlarining muntazam buzilishiga olib kelmoqda. Har bir bola tug‘ilgan paytdan boshlab inson va fuqaro sifatida muayyan huquq va erkinliklarga ega bo‘ladi. Bu huquqlar davlat tomonidan tan olinadi, qonuniy kafolatlanadi hamda himoya qilinadi. Shu bois, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi xalqaro va milliy darajada mustahkam normativ asosga ega bo‘lib, bu boradagi huquqiy yondashuvlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivoji fonida tubdan qayta ko‘rib chiqilmoqda.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

Bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar orasida quyidagilar alohida o'rin tutadi:

- Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948);
- Bola huquqlari deklaratsiyasi (1959, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan);
- BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989);
- Bola hayoti, himoyasi va rivojlanishini ta'minlash bo'yicha Butunjahon deklaratsiyasi (1990).

Ushbu hujjatlar bolani alohida huquqiy subyekt sifatida e'tirof etadi hamda uni davlat tomonidan qo'shimcha himoyaga muhtoj guruh sifatida ko'radi. Ayniqsa, bola huquqlarini zamonaviy texnologik muhitda amalga oshirish ehtiyoji bolalarni har tomonlama, shu jumladan raqamli muhitda ham himoya qilishni talab etmoqda. Masalan, algoritmik tavsiya tizimlari orqali bolalar zararli yoki noto'g'ri axborot bilan yuzma-yuz kelishi xavfi mavjud. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, shuningdek, xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar — xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRC) va uning General Comment No. 25 (2021) hujjati — bolalarning raqamli muhitdagi huquqlarini himoya qilishda asosiy normativ manbalar hisoblanadi. Shunga qaramay, amaliyotda bu huquqlarning to'liq amalga oshirilmasligi, raqamli muhitda bolalarning himoyasining yetarli emasligi kuzatilmoqda. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (CRC, 1989) zamonaviy raqamli muhitga to'g'ridan-to'g'ri moslashtirilmagan bo'lsa-da, uning asosiy prinsiplari – bolalarning manfaatlari ustuvorligi (3-modda), shaxsiy hayot daxlsizligi (16-modda), axborot olish huquqi (17-modda) va ishtirok etish huquqi (12-modda) – raqamli muhitda ham to'liq amal qilishi kerak.¹ 2021 yilda CRC qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan 25-sonli General Comment ("Children's rights in relation to the digital environment") bolalarning onlayn huquqlariga aniq yondashuvlarni belgilab berdi. Bu hujjat bolalarning internetdagi xavfsizligi, axborot erkinligi, algoritmlardan himoyalaniishi va raqamli savodxonligi masalalarini xalqaro huquqiy kun tartibiga olib chiqdi.² Yoshni aniqlash va yoshga mos axborot uzatish (age-appropriate

¹ United Nations Convention on the Rights of the Child (CRC), 1989.

² 5Rights Foundation, "Age Appropriate Design Code," UK ICO, 2020.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

content) tamoyili zamonaviy raqamli muhitdagi huquqiy muammolardan biridir. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2020-yilda qabul qilingan Age Appropriate Design Code (Beeban Kidron va 5Rights Foundation tashabbusi) bu borada ilg'or huquqiy mexanizm hisoblanadi. Unga ko'ra, bolalar foydalanadigan barcha raqamli xizmatlar ular uchun qulay, xavfsiz va shaffof bo'lishi lozim.³ Kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan, yosh foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, profilga ajratish, algoritmik qarorlar ta'sirida bo'lishi ularga salbiy oqibatlar keltirishi mumkin. Mutaxassislar algoritmik shaffoflik (algorithmic transparency), profilga olishni cheklash (limiting profiling) va "default privacy" tamoyillarini bolalar huquqining asosiy himoya vositalari deb bilishadi.

Raqamli muhitda bolalarning shaxsiy hayoti ko'plab xavf-xatarlarga duch keladi. Ayniqsa, ota-onalar tomonidan bolalar hayoti bilan bog'liq kontentni ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish holatlari – "sharenting" – bolaning o'z hayoti ustidan nazoratini yo'qotishiga olib kelmoqda. Yuridik nuqtai nazardan, bu holat GDPR va CRCning 16-moddasiga zid hisoblanadi.⁴ Ma'lumotlar himoyasini ta'minlash bo'yicha GDPRda ko'zda tutilgan "right to be forgotten" tamoyili (shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish huquqi) bolalarga nisbatan alohida e'tibor bilan qo'llanishi lozim. Biroq amaliyotda bu huquqni amalga oshirish texnik, yuridik va ijtimoiy murakkabliklarga ega. Raqamli tizimlar orqali ishlaydigan algoritmlar bolalar uchun kontent tavsiya qiladi, ular haqida axborot to'playdi va psixologik portretlar tuzadi. Bu jarayonning o'zida diskriminatsiya, stereotiplash va manipulyatsiyalash xavflari mavjud. Sonia Livingstone (LSE) va Amanda Third (Western Sydney University) fikriga ko'ra, bolalar algoritmik "ko'rinmas nazorat" ostida bo'lishi ularga nisbatan nohaq yondashuvlarga olib keladi.⁵ Bundan tashqari, bolalarning raqamli ishtirok huquqi ham muhim hisoblanadi. CRCning 12-moddasi – bolalarning fikr bildirish va qaror qabul qilishda qatnashish huquqi – sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan tizimlarda inobatga olinmayapti. Shu sababli algoritmik tizimlar ishlab chiqishda "bolalar ovozi"ni hisobga oluvchi ishtirokiy yondashuvlar joriy etilishi lozim.

³ Livingstone, S., & Third, A. (2017). Children and young people's rights in the digital age. *New Media & Society*.

⁴ Steinberg, S. B. (2016). *Sharenting: Children's privacy in the age of social media*. Emory Law Journal.

⁵ Livingstone, S. et al. (2019). Data and rights: Children and the digital environment.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

Avstraliya bolalar huquqlarini raqamli muhitda ta'minlash bo'yicha xalqaro miqyosda yetakchi yondashuvlardan birini namoyon etmoqda. Mamlakatda bu sohadagi yondashuv texnologik innovatsiyalar, yuridik mexanizmlar va regulator institutsional islohotlarning uyg'unligiga asoslangan. 2015-yilda tashkil etilgan eSafety Commissioner instituti dunyoda bolalarni onlayn tahdid va zo'rvonlikdan himoya qilish bo'yicha ilk mustaqil davlat idoralaridan biridir. Ushbu institut Avstraliyadagi barcha raqamli platformalar, internet-provayderlar va ijtimoiy media xizmatlariga bolalarni himoyalovchi tartiblarni joriy etishni majburiy qiladi.

eSafety platformasi quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

- Cyberbullying bo'yicha real vaqtda shikoyatlarni ko'rib chiqadi va 48 soat ichida zararli kontentni olib tashlashni talab qiladi;
 - Image-based abuse (ruxsatsiz suratlar va videolar) holatlarida zararlanuvchiga huquqiy yordam ko'rsatadi va kontentni global platformalardan yo'q qilish bo'yicha vositachilik qiladi;
 - Early education: bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar uchun onlayn xavfsizlik, raqamli etik va ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha bepul kurslar tashkil etadi.⁶
- Avstraliya 2021-yilda qabul qilgan Online Safety Act (2021) zamonaviy internet muhitining real xavflarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, dunyodagi eng qat'iy onlayn xavfsizlik qonunlaridan biri hisoblanadi. Ushbu akt asosida:
- Katta texnologik kompaniyalar (Meta, TikTok, YouTube) bolalarga zarar yetkazuvchi kontentni aniqlash va tezda olib tashlash bo'yicha aniq majburiyatlarga ega;
 - Platformalar bola foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash, yoshni aniqlash, tavsiyalar algoritmlarini oshkora qilish bo'yicha shaffoflik standartlariga amal qilishi lozim;
 - Shaxsiy hayot daxlsizligi va rozilik prinsiplariga ko'ra, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning onlayn harakati faqat ota-onaning ruxsati bilan monitoring qilinishi mumkin.⁷

Xulosa qilib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi fonida bolalar raqamli makonda tobora kengroq va murakkabroq

⁶ eSafety Commissioner – www.esafety.gov.au

⁷ Online Safety Act 2021 (Australia Government Legislation).



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ularning himoyasi, ayniqsa axborot xavfsizligi va huquqiy kafolatlar sohasida jiddiy muammolar paydo bo‘lmoqda. Raqamli huquqlar — inson huquqlarining yangi, mustahkam shakli sifatida shakllanmoqda va ularni himoya qilish davlatning eng asosiy ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi shart. O‘zbekiston uchun bu jarayon — nafaqat xalqaro majburiyatlar, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun hayotiy zaruratdir. Bolalar raqamli makonda himoyasiz qolsa, ularning shaxsiy ma’lumotlari, psixologik va axloqiy sog‘lig‘i xavf ostida qoladi, bu esa butun jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Xalqaro tajribalar — xususan, Avstraliya va Rossiya Federatsiyasidagi tizimli yondashuvlar — O‘zbekiston uchun aniq va amaliy yo‘l xaritasini belgilaydi. Ushbu davlatlarda yaratilgan maxsus qonunlar, yoshga mos kontentni tartibga soluvchi mexanizmlar, mustaqil regulyator institutlari hamda keng qamrovli raqamli savodxonlik dasturlari bolalar huquqlarining himoyasida samarali natijalar ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, O‘zbekiston uchun quyidagi yo‘nalishlarda harakatlarni tezkor va samarali amalga oshirish shart:

1. Maxsus qonuniy bazani yaratish — raqamli muhitda voyaga yetmaganlarni himoya qilishga qaratilgan mustaqil qonun loyihasi ishlab chiqilishi va qabul qilinishi;
2. Raqamli savodxonlik va huquqiy madaniyatni rivojlantirish — maktablarda, oliy ta’lim muassasalarida va ota-onalar uchun majburiy ta’lim dasturlarini tashkil etish;
3. Davlat va jamiyatning yagona nazorat mexanizmi — mustaqil regulyator organining tashkil etilishi orqali platformalar faoliyati, yoshga mos kontent va axborot xavfsizligi doimiy nazoratga olinishi;
4. Texnologik imkoniyatlarni keng joriy etish — yoshni aniqlash, xavfsiz interfeyslar, sun’iy intellekt yordamida zararli kontentni aniqlash va bloklash texnologiyalarini keng qo‘llash.

Mazkur choralar amalga oshirilmasa, O‘zbekiston jamiyatining eng zaif qatlamini — bolalarni — himoyasiz qoldirish, ularning huquq va erkinliklarini cheklash emas, balki ularni jiddiy xavfga duchor qilish hisoblanadi. Shu sababli, raqamli bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tizimli va kompleks yondashuvni amalga oshirish O‘zbekiston uchun nafaqat zamonaviy talab, balki barqaror rivojlanish



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th June, 2025

strategiyasining muhim qismidir. Ushbu yo‘nalishda davlat, fuqarolik jamiyati va ilmiy muhitning hamkorligi hamda xalqaro tajribalardan faol foydalanish – muvaffaqiyat garovi bo‘ladi. O‘zbekiston raqamli dunyoda yosh avlodning huquq va xavfsizligini ta’minlashda yetakchi o‘rin tutishi uchun bugundan boshlab kuchli va qat’iy huquqiy asos yaratishi, zamonaviy texnologiyalarni izchil joriy etishi, hamda ijtimoiy ongni oshirishga investitsiya kiritishi shart. Faqat shu yo‘l bilan biz raqamli inqilobning barcha ijobiy tomonlaridan yosh avlod to‘laonli foydalanishini ta’minlay olamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Universal Declaration of Human Rights (1948). <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Declaration of the Rights of the Child (1959). <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/rightsofthechild.aspx>
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Convention on the Rights of the Child (1989). <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>
4. Kokkolí, J. (2019). Digital Rights and the Transformation of Human Rights. *Journal of Cyber Law*, 5(3), 240–255.
5. Charter of Human Rights on the Internet. (2011). <https://internetrightsandprinciples.org/>
6. Avstraliyaning eSafety Komissiyasi rasmiy sayti. <https://www.esafety.gov.au/>